

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti
Universitet xiyoboni, 15, Samarqand, 140104
Tel./Faks (366) 2391140, (366) 2403841
Web: www.samdu.uz
E-mail: rektor@samdu.uz
STIR 201213338, MFO 00278
SHHR 400110860184017094100079003



Ministry of Higher education, science and
innovations of the Republic of Uzbekistan
Samarqand State University
named after Sharof Rashidov
University blvd., 15, Samarqand, 140104
Tel./Fax. (366) 2391140, (366) 2403841
Web: www.samdu.uz
E-mail: rektor@samdu.uz
ITN 201213338, MFI 00278
C/a 400110860184017094100079003

27.05.2024 № 10-2478

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
K.A.Sharipovga

Xalqaro simpozium o'tkazishga
ruxsat berish to'g'risida

Hurmatli Kongratbay Avezimbetovich!

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2024-yil 23-25-yanvar kunlari Xitoy Xalq Respublikasiga davlat tashrifi davomida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash hamda O'zbekiston bilan Xitoy o'rtasidagi har tomonlama strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash va keng ko'lamli amaliy hamkorlikni kengaytirish maqsadida 2024-yil 26-28-iyun kunlari "The 8 th International Symposium on Edible & Medicinal Plant Resources and the Bioactive Ingredients (ISEPR 2024)" mavzusida VIII-Xalqaro simpoziumni Samarqand shahrida o'tkazilishi rejalashtirilgan.

Ushbu simpozium "Bir makon bir yo'l" shiori ostida Xitoy Fanlar akademiyasining Shinjon fizika va kimyo texnika instituti tomonidan dorivor xususiyatga ega bo'lgan o'simlik resurslarini o'rganuvchi olimlar va tadqiqotchilar uchun 2008-yildan buyon Xitoy Xalq Respublikasining turli shaharlarida har ikki yilda bir marotaba o'tkazib kelinmoqda.

Simpoziumda biofaol birikmalarga ega bo'lgan dorivor o'simliklardan oziq-ovqat va farmatsevtika sohasida qo'llash istiqbollari, erishilgan yutuqlar va asosiy muammolar muhokama qilinadi.

Shu munosabat bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti rektorati Sizdan ushbu simpoziumni o'tkazishga ruxsat berishingizni so'raydi.

Ma'lumot ilova qilinmoqda.

Rektor



R.Xalmuradov